

## **XORAZM VILOYATIDA XORIJIY INVESTITSION FAOLIYAT (2016-2018 YILLAR)**

**Xudayberganov San`at Sanjarovich**

Urganch davlat pedagogika instituti dotsent v.b.

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail:myusayidsss@gmail.com

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev davlat boshqaruviga kirishgach uning dastlabki kunlaridan boshlab davlat tashqi siyosatini amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashni birinchi darajali vazifa sifatida belgilab, xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga, ayniqsa hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishga keng jalb etish choralari ko'rilgan boshlandi. Tashqi savdo faoliyatidagi sun'iy to'siqlar olib tashlanib, oldindan to'lovlarsiz va kafolat majburiyatlarisiz eksport tartibi joriy etildi. Shuningdek, O'zbekiston taraqqiyotining mazmunan tamomila yangi bosqichida – Harakatlar Strategiyasida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar asosida mamlakatni jadal rivojlantirishning muhim omili bo'lgan chet el investitsiyalarini jalb qilish orqali sanoatni tez taraqqiy ettirish, sanoatning yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushini kengaytirishdan iborat yangi iqtisodiy siyosat izchil amalga oshirishga kirishildi.

2016-yil 11-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Shovot tumanida bo'lib o'tgan saylovoldi uchrashuvida mamlakatning barcha hududlari qatori Xorazm viloyati iqtisodiyotini ham modernizatsiya qilish, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, tibbiyot, turizm, san'at va boshqa sohalarni yanada rivojlantirishga oid aniq va izchil rejalarni bayon qildi. Viloyatda tez fursatlarda ushbu masalalarning ijrosi bo'yicha amaliy ishlar boshlab yuborilib, qisqa muddat davomida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishila boshlandi. Viloyatning barcha sohalariga ikki yil mobaynida barcha manbalar hisobidan umumiy qiymati 1 trln 600 mlrd so'mlik investitsiya mablag'lari jalb etildi. Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2016-yilda viloyatda atigi 34 ta qo'shma korxonalar faoliyat yuritgan. 2016-yilning yanvar-dekabrida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 24 681,6 mln. AQSH dollarini, jumladan 12 567,6 mln. AQSH dollarini eksport operatsiyalari, 12114,0 mln. AQSH dollarini import operatsiyalari tashkil etgan.

Darhaqiqat, "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning qabul qilinishi O'zbekistonda chuqur tarkibiy o'zgarishlar, tub demokratik islohotlar, transformatsion jarayonlar davrini boshlab berdi. 2017-yilning o'zida Respublika hududlarini rivojlantirish bo'yicha 11 ta, shuningdek, alohida tuman va shaharlarni rivojlantirish bo'yicha 36 ta dasturlar qabul qilindi.

2017-yil Respublika tashqi savdo faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatning MDH davlatlari – Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston, Qirg'iziston, Ukraina, Tojikiston Respublikalari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 28,5 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Latviya, Eron, Fransiya, Litva, AQSH, Italiya davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 41,9 foizni tashkil qildi.

Xorazm viloyatining tashqi savdo faoliyatida 2017-yilda MDH mamlakatlarining ulushi 29,4 foizni tashkil qildi. Boshqa mamlakatlar bilan olib borilgan faoliyatning ko'rsatkichi esa 70,6 foiz

ko'rsatkichga ega. Tovar aylanmasida Rossiya Federatsiyasi 26,8 foiz bilan katta ulushga ega bo'ldi. Aynan ushbu davrni mamlakatning boshqa viloyatlari bilan qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, Samarqand viloyatining 2017-yildagi tashqi savdosida MDH mamlakatlarining ulushi 30,1 foizni, Navoiy viloyatida 34 foizni tashkil etdi.

Yangi O'zbekistondagi iqtisodiy rivojlanish tendensiyasini Xorazm viloyati misolida tahlil etadigan bo'lsak, 2017-yilda viloyatda tovar aylanmasida Rossiya, Xitoy va Eron kabi mamlakatlarning ulushi yuqori ko'rsatkichni tashkil qildi. Mazkur davrda viloyat eksporti ko'rsatkichlarida jami paxta tolasi eksporti eng katta ulushga ega bo'lib, eksport hajmining 44 foizini, shuningdek, jami import hajmida mashina va uskunar importi katta ulushga ega bo'lib, 65 foizini tashkil qilgan. 2017 yilni Yangibozar tumani misolida tahlil qiladigan bo'lsak, joriy yilda tumanda 1 ta qo'shma korxonalar faoliyati yo'lga qo'yilib, tashqi savdo aylanmasi 5681,5 ming AQSH dollarini tashkil qilgan. Mazkur ko'rsatkich bilan tuman viloyatning eksport salohiyatida 4,7 foizni egalladi.

Viloyatda 2017-yilda yengil sanoat korxonalarini tomonidan 40,5 mln dollar miqdorida eksport amalga oshirilib, 2016-yilga nisbatan eksport hajmi 50 foizga o'sdi. Biroq 2017-yilda viloyat uchun belgilangan 43,3 mln dollarlik hududiy eksport rejasini bor yo'g'i 49 foizga bajarildi. Jumladan, mevasabzavotchilikni rivojlantirish uchun yaratilgan imkoniyatlardan tumanlar to'liq foydalana olmaganligi natijasida reja 39 foizga bajarilib, 13,7 mln dollarlik mahsulotlar eksportga yo'naltirilgan xolos. Misol uchun Shovot tumanida 5,6 mln dollarlik reja 12 foizga yoki 688, 4 ming dollarni, Hazorasp tumanida 5,7 mln dollarlik reja 20 foizga yoki 1,1 mln dollar hajmida bajarildi. Shuningdek, Qo'shko'pir tumanida ham reja bo'yicha mevasabzavotlar eksporti 920 ming dollarlik prognoz qilingan bo'lishiga qaramasdan, 36 foiz yoki 336 ming dollar hajmida amalga oshirildi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatga tashriflari davomida belgilab berilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirish jarayonida viloyatning investitsiya jozibadorligi va xorijiy sarmoyaning kirib kelishi jadallashdi. Xususan, Xorazm viloyati delegatsiyasining 2018-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida Xitoy, Belarus, Turkiya, Turkmaniston va Rossiya Federatsiyasiga tashriflari amalga oshirildi.

Buning	natijasida	jami	qiymati
181 mln AQSH dollariga teng investitsiya loyihalarini amalga oshirish yuzasidan kelishuvlar, 62 mln AQSH dollari miqdoridagi eksport shartnomalari imzolandi. Shuningdek, Birlashgan Arab Amirliklarning «Armada grupp» kompaniyasi bilan 100 mln dollarlik investitsiyalarning jalb qilinish hisobiga «G'ovukko'l» atrofida turistik majmuani barpo qilishga kelishilganligi, Saudiya Arabistonining «Ajlan end Bros xolding» kompaniyasi bilan to'qimachilik klasterlarini tashkil etish va mehmonxona loyihalarini amalga oshirish bo'yicha ham kelishuvlarga erishilganligi viloyatning investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qildi.			

Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tumanlar kesimida tahlil etsak, 2017-yilda Gurlan tumanida xorijiy sarmoya asosida qo'shma korxonalar tashkil etilmagan bo'lsa-da, sanoat ishlab chiqarish hajmi 184,2 mlrd so'mni, eksport salohiyati 9,9 mln AQSH dollarini, import ko'rsatkichlari esa 1 mln AQSH dollarini tashkil qildi. 2018-yilda Xorazm viloyati iqtisodiyotiga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yanada jadallashtirish maqsadida viloyat hokimining 2018-yil 11-iyuldagi 10-2310-sonli «Xorazm viloyati bo'yicha 2018-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliyaviy institutlarini jalb etish rejasini» tasdiqlanib, viloyatda 100,8 mln dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish belgilangan. Biroq viloyatning tahlil

etilayotgan davrdagi ko'rsatkichlari shu yili 11 oylik natijalariga ko'ra 18,2 mln dollar yoki rejaga muvofiq 18 foiz bajarilganligini ko'rish mumkin. Xususan, 2018-yilda Yangibozor tumanida umuman to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilmagan. Shuningdek, belgilab berilgan reja topshiriqning bajarilishi Bog'ot va Yangiariq, Gurlan, Qo'shko'pir, Urganch, Xonqa va Xiva tumanlarida umuman qoniqarsiz holatda bo'ldi. Shu bilan birga 2018-yil davomida jami 22 ta xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan. Xususan, tahlil etilayotgan yilda Gurlan tumanida 2 ta qo'shma korxonalar qurilgan bo'lsa, Xonqa va Yangibozor, Hazorasp tumanlari hamda Xiva shahrida biron-ta ham xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmadi. Shunga qaramasdan 2018-yilda viloyatda 7,3 mln dollarlik eksport amalga oshirilib, reja 123,7 foizga bajarilgan. Biroq viloyatda hududiy sanoat mahsulotlari eksporti rejasi bajarilgan bo'lsada, Xonqa tumanida 1220 ming dollar kam yoki 27,5 foizga bajarilgan. Shuningdek, viloyatning 3 ta tumanida 110,1 ming dollarlik sanoat mahsulotlari eksporti amalga oshirildi.

2018-yilgi investitsion faoliyatni tumanlar kesimida tahlil qilsak, Yangiariq tumanida 2018 yilda tashqi savdo aylanmasi 7107,4 ming AQSH dollarini tashkil etib, shundan eksport 1500,4 dollar, import esa 5607,0 ming dollarni tashkil qildi. Tumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning

2017-yil

27-28-yanvar kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi davomida bildirgan tashabbusi asosida 2018-yilda ishga tushirilgan "Yantex invest" MChJ korxonasi tomonidan yiliga 12,5 mln. pogonometr gazlama mato ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi va 220 ta yangi ishchi o'rinlari yaratildi. Natijada yiliga o'rtacha 70 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, eksportga yiliga 4,4 mln. AQSH dollarlik mahsulotlar yo'naltirildi. Bundan tashqari, 105 mln. AQSH dollari miqdoridagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi hisobiga "Odas Enerji CA" MChJ tomonidan soatiga 174 MVt quvvatga ega elektr energiyasi ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi.

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev viloyatga tashrifi mobaynida UzTEX kompaniyalar guruhiga Shovot tumanining chekka hududida yuqori texnologik imkoniyatlarga ega mazkur korxonani tashkil etish va mahalliy aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha bergan topshiriqlari yuzasidan loyiha qiymati 65 mln dollar bo'lgan korxonalar faoliyati 2 bosqichda tashkil etildi. 2017-yildagi dastlabki bosqichda Italiyaning "Lonati" kompaniyasida ishlab chiqarilgan 528 ta, 2018-yilda yana 512 ta paypoq to'qish dastgohi xarid qilindi. Ushbu dastgohlar Buyuk Britaniyaning "Maritex Industrial LLP" kompaniyasi tomonidan keltirib o'rnatildi. Korxonada 2018-yilning oktabr oyi holatiga ko'ra 12,5 million juft paypoq to'qilib, 3,85 million dollarlik mahsulot AQSH, Rossiya, Moldova, Ukraina kabi qator mamlakatlarga eksport qilindi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, viloyat sanoatini rivojlantirishning eng istiqbolli sohalari sifatida meva-sabzavotchilik, go'sht va sut, charm-poyabzal mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yengil sanoat va mashinasozlik sohaslarini keltirish mumkin. Keyingi yillarda amalga oshirilgan investitsiya dasturlari va xorijiy samoyalar ham aynan mana shu sohalarga kiritilgan.

O'zbekistonning boshqa hududlari kabi Xorazm viloyatida ham keng ko'lamli islohotlar, bunyodkorlik ishlari olib borildi. Keyingi yillarda viloyatda yangi sanoat korxonalari, kichik biznes subyektlari, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Viloyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksportga yo'naltirilishi uchun qulay investitsion muhit yaratildi. Xalqaro sarmoyalar ishtirokida turizm, to'qimachilik sanoati, tibbiyot va boshqa sohalarda maqsadli loyihalar amalga oshirildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi Axborot xizmatining joriy arxiv ma’lumotlari. – Urganch, 2021-yil 30-iyul.
2. Abdirimov B., Atajonov G‘. 791 yil o‘tib. – Urganch.: Ogahiy nashriyoti, 2023.
3. Davletov S., Allanazarov S. Milliy taraqqiyotning mustahkam poydevori. // Tamaddun nuri, 2022-yil, 5-son. – B.15-12. Абдуллаев С.А., Хажиев Б.Д., Мамбетжанов Қ.Қ. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иктисодий ривожланиш стратегияси. – Т.: Баркамол файз медиа, 2018. – 424 б.
4. Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар. Хоразм мустақиллик йилларида. – Т.: Истиклол, 2001. – 192 б.